

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI VA ADVOKATURA
O‘RTASIDAGI HUQUQIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

Abdijemilova Sholpanay

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura bosqichi magistranti.

email: solpanajabdyzemilova@gmail.com tel: 91-388-99-55

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15625697>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotning maqsadi advokatura institutining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy tamoyillari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, Adliya vazirligi va advokatura o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish yo‘llari, amaldagi qonunchilikdagi muammolar va ularni bartaraf qilish, xorij tajribasi asosida advokatura va adliya organlari o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish bilan bog‘liq muammolarga yechim topishdan iborat. Muammoni nazariy tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura instituti o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, advokaturaning mustaqilligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni aniqlash va tahlil qilish, ular o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan va muhim amaliy ahamiyat kasb etuvchi takliflar ishlab chiqish. Maqolada ushbu sohadagi mavjud huquqiy bo‘shliqlarni aniqlab, ularni bartaraf etishning zamonaviy, innovatsion va xalqaro tajribaga asoslangan yondashuvlarini ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Adliya vazirligi, advokatura, advokatlik faoliyati, davlat nazorati, advokaturaning mustaqilligi, huquqiy munosabat, advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlar hay‘ati, yuridik maslahatxona

Аннотация. Целью настоящего исследования является поиск решений проблем, связанных с правовым статусом и основными принципами деятельности института адвокатуры, вопросов совершенствования правовых отношений между Министерством юстиции Республики Узбекистан и адвокатурой, путей совершенствования правовых отношений между Министерством юстиции и адвокатурой, проблем в действующем законодательстве и их устранения, оптимизации взаимоотношений между адвокатурой и органами юстиции на основе зарубежного опыта. Теоретическое рассмотрение проблемы вопросов совершенствования правовых отношений между Министерством юстиции Республики Узбекистан и институтом адвокатуры, выявление и анализ проблем, препятствующих независимости адвокатуры, разработка научно обоснованных и значимых практических предложений по совершенствованию правовых отношений между ними. В статье выявляются существующие правовые пробелы в данной сфере и пропагандируются современные, инновационные и основанные на международной практике подходы к их решению.

Ключевые слова: министерство юстиции, адвокатура, юридическая деятельность, государственный контроль, независимость адвокатуры, правовая позиция, адвокатская контора, юридическая фирма, коллегия адвокатов, юридическое консультирование

Abstract. *The purpose of this study is to find solutions to the problems related to the legal status and basic principles of the activity of the Institute of Advocacy, issues of improving legal relations between the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan and the Bar, ways to improve legal relations between the Ministry of Justice and the Bar, problems in current legislation and their elimination, optimization of relations between the Bar and justice bodies based on foreign experience. Theoretical examination of the problem Issues of improving legal relations between the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan and the Institute of Advocacy, identification and analysis of problems that hinder the independence of the Bar, development of scientifically based and significant practical proposals on improving legal relations between them. The article identifies existing legal gaps in this area and promotes modern, innovative, and international practice-based approaches to addressing them.*

Keywords: *Ministry of Justice, bar, legal activity, state control, independence of the bar, legal attitude, law office, law firm, bar association, legal consultancy.*

Kirish (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning nazariy-huquqiy asoslari)

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, advokatura institutining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash va fuqarolik-huquqiy jihatdan himoya qilish munosabatlarini ilmiy tahlil qilish orqali uni rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning umumnazariy asoslari va uning ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining advokatura sohasidagi vakolatlarining umumnazariy asoslari va uning ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish; Advokatura institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslariga oid ilmiy kategoriyalar va doktrinal yondashuvlarning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda tegishli ilmiy ta'riflar berish;

Advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslari rivojlanishi bosqichlari va uning o'ziga xos xususiyatlari bir qator tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, o'zini o'zi boshqarish organi tizimini tashkil etish modellari, ularning ahamiyatini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish va uning asosiy vazifalari tavsifini tahlil etish; advokatlarning kasbiy manfaatlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini ilmiy tadqiq etish va takliflar berish;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining advokatura sohasidagi ayrim vakolatlarini Advokatlar palatasiga o'tkazish bo'yicha qonunchilikka takliflarni ichlab chiqish masalalarini tahlil qilish va takliflar berish;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura institutining xalqaro va xorijiy advokatlar hamjamiyatlari bilan hamkorligini kuchaytirishga oid masalalarni o'rganish va takliflar berish;

Xorijiy davlatlarda advokatura institutining tashkiliy-huquqiy shakllari, Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganish asosida ularning ijobiy tajriba va amaliyotini milliy advokatura institutiga joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, bu munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish mavzusi shu vaqtgacha kompleks ilmiy tadqiq etilmagan.

Asosiy qism O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning nazariy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining advokaturaga oid vakolatlari tahlili

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida" gi qonunining 1-moddasiga ko'ra, advokatura-huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi.

Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi, deb belgilangan.

Ushbu qonunning 3-moddasiga ko'ra, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" gi qonunning 1-moddasiga muvofiq, advokatlik faoliyati bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, shug'ullanishga haqlidir. Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziya beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida" gi qonunining 3¹-moddasiga ko'ra, litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari (bundan buyon matnda adliya organlari deb yuritiladi) tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs (bundan buyon matnda talabgor deb yuritiladi) litsenziya olish uchun advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay'atida, yuridik maslahatxonada) kamida uch oy muddat stajirovka o'tashi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart. Davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lgan shaxs advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o'tmasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli.

Malaka imtihonini topshira olmagan talabgor uni takroran topshirishga kamida olti oydan keyin qo'yiladi. Ushbu qonunchiligimizga ko'ra, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor litsenziya olish uchun tegishli adliya organiga uch oy ichida murojaat qilishi kerak. Bu muddatni o'tkazib yuborgan talabgor litsenziya olish uchun adliya organiga malaka imtihonini takroran topshirganidan keyingina murojaat qilishi mumkin, deb belgilangan.

Shu o'rinda aytishimiz joizki, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor uch oy ichida litsenziya olish uchun tegishli adliya organiga har qanday sabab bilan murojaat qila

olmay qolgan holatda, belgilangan muddat o'tib ketsa, malaka imtixonini takroran topshirishi lozim bo'ladi.

Qonunchiligimizda bunday normaning mavjud bo'lishi o'z navbatida amaliyotda muammolar keltirib chiqarmasligi uchun litsenziya berish tartibini raqamlashtirgan holda, talabgor malaka imtixonini muvaffaqiyatli topshirgan holatda, Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan litsenziya berish uchun avtomatlashgan holatda tegishli adliya bo'limlariga xabarnoma yuborilish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Uchbu moddaga ko'ra, belgilangan tartibda litsenziya olgan talabgor uch oy ichida advokat qasamyodini qabul qilishi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo'lgan boshqa shaxslar bilan birgalikda advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmasiga kirganligini tasdiqlovchi hujjatlar adliya organi tomonidan olingan paytdan e'tiboran ikki ish kuni ichida beriladi. Talabgor advokatlik guvohnomasi berilgan kundan e'tiboran advokat maqomini oladi. Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi adliya organi tomonidan bu haqda uch kunlik muddatda xabardor qilinadi. Shunday xabarnoma olingan paytdan e'tiboran advokat Advokatlar palatasining a'zosi bo'ladi. Advokatlik guvohnomasining shakli va uni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Maqolada yoritiladigan masala O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, biz avvalo huquqiy munosabatlar tushunchasiga e'tibor qaratishimiz lozim.

Huquqiy munosabatlar-bu huquq normalariga asoslangan, ijtimoiy munosabatlarning maxsus turi bo'lib, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari bilan belgilangan tartibda rivojlanadi. Bunday munosabatlar davlat tomonidan belgilangan va himoyalangan bo'ladi¹.

Davlat boshqaruvi tizimida Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi munosabatlar aynan huquqiy munosabatlar orqali amalga oshadi. Bu munosabatlar ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, bular bir tomondan - Adliya vazirligining advokatura faoliyatini muvofiqlashtirish, litsenziya berish va advokatlik faoliyatini monitoring qilish vakolatlari bo'lsa, ikkinchi tomondan - advokatura o'zining mustaqilligi, o'zini-o'zi boshqarish asosida faoliyat yuritadi.

Mazkur huquqiy munosabatlarda ikki asosiy subyekt ishtirok etadi. Ya'ni, davlat organi sifatida Adliya vazirligi - normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, yuridik xizmatlar ko'rsatish sohasini tartibga solish, qonunchilikda belgilangan tartibda malaka imtixonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgorlarga litsenziya berish va ro'yxatga olish kabi funksiyalarni bajaradi. O'z navbatida, fuqarolik jamiyati institutlaridan biri bo'lgan advokatura - mustaqil tarzda yuridik yordam ko'rsatadi, Advokatlar palatasi orqali o'zini-o'zi boshqaradi.

Advokatlar – yuridik yordam ko'rsatish, sud jarayonlarida vakillik qilish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan mustaqil huquqiy shaxslar hisoblanadi.

Ularning faoliyati mustaqillik tamoyili asosida tashkil etilgan bo'lib, davlat organlaridan va siyosiy ta'sirdan nisbatan uzoq turishi lozim. Advokatlarning mustaqilligi ularning axloqiy qoidalar, etik normalar va professional majburiyatlariga asoslanadi².

¹ Давлятов В. Конституционно-правовые принципы института адвокатуры //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 13-22.

Shuningdek, advokatlar o'zi himoya qilayotgan shaxslarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, ishonchli va mas'uliyatli xizmat ko'rsatishga majburlirlar.

Bu ikki subyekt o'rtasidagi munosabatlar davlat boshqaruvi bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi huquqiy mexanizmlarning tartibga solinish jarayonini o'zida namoyon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning markaziy nuqtasi - bu fuqarolarga sifatli va tezkor yuridik yordam ko'rsatishni ta'minlash hisoblanadi.

Bu sohada ularning o'zaro munosabatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: Aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlariga bepul huquqiy yordam ko'rsatish (davlat tomonidan moliyalashtirilgan holda); Advokatlarning kasbiy tayyorgarligi va ularning malakasini oshirishda Adliya vazirligining ishtiroki; Advokatlar ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqishda Adliya vazirligining rollari.

Bu munosabatlarning samaradorligi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etilishi lozim: mustaqillik, ya'ni advokatura faoliyati davlat aralashuvidan holi bo'lishi zarur, hamkorlik-ikki tizim manfaatlarining uyg'unlashuvi, mas'uliyat va hisobdorlik. Har ikki tomonning o'z vakolatlari doirasida qonuniy faoliyat yuritishi, shaffoflik va oshkoralik. Jamoatchilik huquq va erkinliklari himoya qilinadigan shaxslar oldida ochiqlikni ta'minlash, huquqiy davlat tamoyili - konstitutsiyaviy asosda faoliyat yuritishdan iborat bo'ladi.

Adliya vazirligi advokatlarning malakasini oshirishni tashkil etadi. Advokatlarning malakasini oshirish tizimi raqamlashtirilgan bo'lib, onlayn malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Malaka oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlar elektron shaklda beriladi. Bu tizim advokatlarning professionallik darajasini oshirishga xizmat qiladi³

O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmatlar tizimini takomillashtirish mamlakatimizdagi huquqiy davlat barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Advokatura faoliyatining sifat va samaradorligini oshirishda Adliya vazirligi bilan advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning optimallashtirilishi zarur. Hozirgi kunda ushbu munosabatlarda ayrim byurokratik to'siqlar, normativ-huquqiy bazaning eskirganligi va malaka oshirish tizimidagi zaifliklar mavjud. Shuning uchun, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganib, O'zbekiston sharoitiga mos keladigan samarali yechimlarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda⁴

Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlar nazariy jihatdan chuqur asoslangan bo'lib, ular davlat va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqani ifodalaydi.

² Madinabonu T. O'ZBEKISTONDA LEGAL TECH SOHASIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMLARI //YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 339-347.

³ Зарипов Ф. Адвокатларни малакасини оширишнинг ўзига хос жиҳатлари //Наука, общество, образование в современных реалиях. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 86-88.

⁴ Ҳакимов Р. Р. ЮРИДИК ТАЪЛИМ: БУГУНГИ ҲОЛАТ, МУАММОЛАР ВА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Review of law sciences. – 2020. – №. 1. – С. 4-9.

Ushbu munosabatlarning aniq belgilab qo'yilishi, ularning o'zaro muvozanatini ta'minlash, advokatlik faoliyatining mustaqilligini kafolatlash orqali huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri - odamlarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi⁵.

Yuqorida amalga oshirgan tadqiqotimizdan xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi paytda butun dunyoda ushbu dissertatsiyadagi ilmiy yangilik quyidagi jihatlardan namoyon bo'ladi:

Advokatura va Adliya vazirligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilishda yangi metodik yondashuvlar ishlab chiqich maqsadida nafaqat mavjud qonunchilik asosida, balki xorijiy tajriba va zamonaviy nazariy modelga asosan tuzich.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, advokatura institutining mustaqilligini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar, ya'ni advokatura institutining moliyaviy va tashkiliy mustaqilligini ta'minlash, litsenziya berish jarayonini soddalashtirish, nazorat mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish.

Ilmiy yangilik sifatida, fuqarolarning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish, islohotlarni samarali amalga oshirish va yuridik xizmatlarning sifatini oshirish uchun advokatura va davlat organlarining o'zaro munosabatlarini qayta ko'rib chiqish zarurligiga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijalari asosida tuzilgan takliflar advokatura institutining mustaqilligini yanada kuchaytirish va Adliya vazirligining roli hamda nazorat mexanizmlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bu holat sud-huquq tizimida islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Advokatlar faoliyatining qonuniy va mustaqil bo'lishi orqali fuqarolarga sifatli yuridik yordam ko'rsatish imkoniyati ortadi. Natijada, sud va islohot jarayonlari samaraliroq kechadi⁶

XULOSA

Xalqaro tajriba va innovatsion yondoshuvlarni joriy etish, ya'ni bunda ilmiy tadqiqotlar asosida xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni milliy tizimga moslashtirish tavsiya etiladi. Bu advokatura va adliya tizimini yanada shaffof, raqobatbardosh va faol qilishga yordam beradi. Advokatlar va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarning yanada tartibli va ochiq shakllanishi jamiyatda huquqiy ongning oshishiga va fuqarolarning huquqiy bilimi darajasining yuksalishiga olib keladi.

Advokatlik faoliyati qonuniylik, shaffoflik, mustaqillik, axloqiylik va huquqlari himoya qilinayotgan shaxslarning manfaatlarini ustuvor qo'yish kabi tamoyillarga asoslanadi. Mazkur prinsiplar advokatlarning ish faoliyatida qat'iy rioya qilinishi lozim bo'lgan yuridik va etik normalarni tashkil etadi. Ushbu tamoyillar yuridik muhitda ishonchni mustahkamlaydi, sud jarayonlari adolatli kechishiga yordam beradi va jamiyatda huquqiy madaniyatning oshishiga xizmat qiladi. Davlat nazorati advokatura institutiga nisbatan qo'llaniladigan nazorat mexanizmlarida asosiy tamoyil advokatlarning mustaqilligini buzmasdan, ularning faoliyat sifatini oshirish nazarda tutiladi. Ushbu nazorat advokatlar palatasi faoliyati va litsenziya berish jarayonlari orqali amalga oshiriladi.

⁵ Davletov R. Давлат ва жамият қурилишини такомиллаштириш йўлида //Strategy of Uzbekistan. – 2021. – №. 4. – С. 136-143.

⁶ Nurumov D. D., To'Ychiyeva M. B. Q. O 'ZBEKISTONDA DAVLAT HISOBIDAN BEPUL YURIDIK YORDAM KO 'RSATISH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 6. – С. 639-649.

Qonunchilikda belgilangan normativ-huquqiy asoslar yordamida advokatlarning faoliyati muntazam nazorat ostida bo'ladi, shu bilan birga ularning mustaqilligi kafolatlanishi lozim.

Xorijiy davlatlar, masalan, AQSh, Germaniya, Frantsiya va Yaponiya tajribasini o'rganish natijasida advokatura instituti to'liq mustaqil model asosida shakllangan. Ushbu davlatlarda advokatlar litsenziya berish, nazorat va malaka oshirish masalalarida yagona mustaqil tizimga ega bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda ham Advokatlar palatasining moliyaviy va tashkiliy mustaqilligini oshirish zarur. Xorijiy tajriba asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, ularni milliy qonunchilikka moslashtirish va nazoratning faqat sud tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutish mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.04.2018 yildagi PQ-3666-son, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-3681790>.
4. O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni. – 25.12.1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida"gi Nizom. – 13.04.2018.
6. O'zbekiston Respublikasining «Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida»gi Qonuni. – 16.06.2023.
7. Madinabonu T. O'zbekistonda Legal Tech sohasida innovatsiyon loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari // Yangi O'zbekiston, Yangi tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 339-347.
8. ҲАКИМОВ Р. Р. ЮРИДИК ТАЪЛИМ: БУГУНГИ ҲОЛАТ, МУАММОЛАР ВА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Review of law sciences. – 2020. – №. 1. – C. 4-9.
9. 1 Davletov R. Давлат ва жамият қурилишини такомиллаштириш йўлида //Strategy of Uzbekistan. – 2021. – №. 4. – C. 136-143.
10. Давлятов, Валишер. "Модели организации системы органов самоуправления и их содержание." *Общество и инновации* 6.1/S (2025): 385-389.
11. Nurumov D. D., To'Ychiyeva M. B. Q. O'zbekistonda davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 6. – C. 639-649.

Internetdagi (elektron) manbalarga havolalar

12. <http://lex.uz>;
13. <https://president.uz/uz/lists/view/3887>